



**Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi**

O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv metodlar

Nargiza To'rayeva

**Namangan viloyati Pedagogik mahorat markazi
boshlang'ich ta'lim metodisti**




Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari
2. Darslarda qo'llaniladigan interaktiv metodlar
3. Interaktiv metodlar asosida darslarni tashkil etish metodikasi
4. Kreativ fikrlashni rag'batlantirish va amaliy tavsiyalar



KREATIV FIKRLASH — ZAMONAVIY TA'LIM TALABI

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — o'quvchilarda **mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash** qobiliyatlarini shakllantirishdir. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, ularni o'qigan matnni chuqur anglash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv asosida qayta talqin etishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning intellektual, nutqiy va ijodiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Aynan ushbu davrda bolaning fikrlash faoliyati, tasavvuri, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va ijodiy yondashuvi faol rivojlanadi.

Ilmiy dunyoqarash

O'qish fani o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi

Axloqiy tarbiya

Ma'naviy ahamiyatni ta'kidlaydi va qadriyatlarni shakllantiradi

Ijodiy qobiliyat


O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va dunyoqarashini rivojlantiradi



O'qish savodxonligi o'quvchilarning o'qishdan ko'zlagan maqsadlari bilan chambarchas bog'liq



“O‘qish savodxonligi — bu faqat matnni o‘qish emas, balki anglash, tahlil qilish va fikr bildirish ko‘nikmasidir”



Matn mazmuni asosida tashkil etilgan muhokamalar:

- o‘quvchilarning faol fikrlashini kuchaytiradi
- mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatadi
- muloqot madaniyatini shakllantiradi
- o‘zlari sezmagan g‘oyalarni kashf etadi



O‘qish darslarida savollar orqali g‘oyalarni kashf etish

- Yopiq savollar:

faqat faktni tekshiradi

- Ochiq, kengaytirilgan savollar:

fikrlashni faollashtiradi

tahlil talab qiladi go‘yalarni
kashf etadi

Misollar:

“Nima uchun
qahramon shunday
qaror qabul qildi?”

Bu voqea qanday
oqibatlariga olib
kelishi mumkin?”

“Agar vaziyat
boshqacha bo‘lganida
nima o‘zgarardi?”

Muntazam qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil va kreativ



KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH MASHQLARI

1

Ko'p fikr aytamiz

Kitobdan yana qanday foydalanish mumkin? Hech bir fikr tanqid qilinmaydi. Beglikni rivojlantiradi.

2

Turli yo'l bilan o'ylaymiz

Bu vazifani yana qanday bajarish mumkin? Moslashuvchan fikrlashni rivojlantiradi.

3

Noodatiy fikr topamiz

Boshqalarga o'xshamagan fikr aytish. O'ziga xoslikni rivojlantiradi.

4

Fikrni kengaytiramiz

G'oyalarni batafsil tushuntirish, hikoya yoki rasm orqali ifodalash. Fikrni rivojlantirish ko'nikmasini shakllantiradi.

5

Shoshilmaymiz


Yana boshqa fikr bo'lishi mumkinmi? Ochiq fikrlashni rivojlantiradi.

Bolalarda ijodiy shaxsni shakllantirish zamonaviy maktab oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — chunki aynan ijod jarayonida inson o'zini anglash va namoyon etish imkoniyatlarini topadi.

YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARGA ASOSLANGAN IMKONIYATLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun **tasviriy fikrlash, tasavvur va qiziqish** yetakchi xususiyat hisoblanadi.

Ular yangi axborotni o'yin, rasm, hikoya va muloqot orqali tezroq qabul qiladi.



O'qish fanining kreativ imkoniyatlari

Tasavvurni boyitish

Badiiy matnlar o'quvchilarning tasavvurini boyitadi

Shaxsiy munosabat

Matnga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish imkoniyati yaratiladi

Ijodiy fikrlash

Qahramonlar obrazini tahlil qilish ijodiy fikrlashni faollashtiradi

Ijodkorlik

Voqealarni davom ettirish va muqobil yakun tuzish orqali ijodkorlik rivojlanadi



Interfaol metodlar: Ta'limning yangi bosqichi

Yakka yo'nalish emas, hamkorlik

Interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadigan usullar hisoblanadi. Bilimlarni faqat tinglash emas, balki amalda qo'llashga asoslangan.

Bu metodlar o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi hamda ta'limni hayotiy jarayonga aylantiradi.



Interaktiv metodlar va o'yin texnologiyalari

Interaktiv metodlar o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda quyidagi metodlar samarali:

Aqliy hujum

Tezkor va erkin fikrlashni rivojlantiradi

Matnni davom ettir

Ijodiy yondashuvni rivojlantiradi

Klaster

G'oyalarni tizimlashtirishni o'rgatadi

Besh savol

Mantiqiy va tanqidiy tafakkurni kuchaytiradi

Rolga kirish

Obrazli va emotsional fikrlashni shakllantiradi



Muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar

Muammoli savollar va vaziyatlar o'quvchilarning tafakkurini faollashtiradi, kreativ va tanqidiy fikrlashga undaydi:

“Agar qahramon boshqacha ish tutganida nima bo'lardi?”

“Bu voqea bugungi kunda sodir bo'lsa-chi?”

“Qahramon o'rnida siz nima qilardingiz?”

Ijodiy topshiriqlar turlari

Topshiriq turlari

- Hikoya tuzish
- Rasm chizib, matn bilan bog'lash
- Matnga sarlavha topish
- She'r yoki dialog tuzish
- Voqealarni sxema orqali ifodalash

O'qituvchining roli

- Erkin fikrlash muhitini yaratishi
- Har bir o'quvchi fikrini qo'llab-quvvatlashi
- Xatoni rivojlanish manbai sifatida qabul qilishi
- O'quvchilarni rag'batlantirishi

To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda **mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash** ko'nikmalarini izchil shakllantiradi.



O‘qish darslarida qo‘llaniladigan interaktiv metodlar

Metodik yondashuvlar

Brainstorming (Miyaga hujum)

Bolalar birgalikda g‘oyalar yaratadi:
“Qahramonga qanday yordam berish mumkin?”

Morfologik tahlil

Turli hikoya elementlarini birlashtirib yangi hikoya yaratish

O‘yin texnologiyalari

Dramatizatsiya, rol o‘yinlari, boshqotirmalar orqali fikrli

Sinektika

Matn yoki so‘zlarni yangi jihatdan bog‘lash: “Bu so‘zni hayvon bilan solishtirsak?”

TRIZ usuli

Hikoyadagi muammolarni yechish va yangi vaziyat yaratish

Loyiha ishlari

Mustaqil yoki guruhda qisqa hikoya, rasm yoki dramatizatsiya yaratish



O'qish darsi bolalarni matn, hikoya va so'zlar bilan ishlashga o'rgatadi. Shu dars orqali **lug'at boyligi oshadi**, fikrlarni izohlash qobiliyati rivojlanadi, tasavvur va ijodiy fikrlash faoliyatga aylanadi.

Misol mashqlar

"Agar... bo'lsa?"

Qahramon uyni
tark etganida
nima bo'lardi?

"Hikoyani yakunla"

Boshlang'ich jumla
berib, bolalar o'z
yakunini yaratadi

"Rasm asosida hikoya"

Rasmga qarab
voqeani
so'zlab berish

"Danetki"

Mantiqiy savollar berib,
voqeani aniqlash



“Besh savol”metodi

“Besh savol” metodi — o‘quvchilarning o‘qilgan matnni **ongli ravishda tushunishi**, tahlil qilishi va asosiy mazmunini aniqlashga yo‘naltirilgan interaktiv metoddir. Savollar tizimi asosida voqealar ketma-ketligi, sabab-oqibat munosabatlari va qahramonlar xatti-harakatlari chuqurroq anglanadi.

Kim? Voqeada ishtirok etuvchi qahramonlarni aniqlash

Qayerda? Voqea sodir bo‘lgan joyni belgilash

Qachon? Voqeaning vaqtini aniqlash

Nima uchun? Sabab va maqsadni tushuntirish

Qanday? Voqea kechishini izohlash

Qo‘llash bosqichlari

- 1 Matnni ifodali o‘qish
- 2 Asosiy savollarni ketma-ket berish
- 3 Javoblarni to‘ldirish va aniqlashtirish
- 4 Umumiy xulosa chiqarish

Natijalar

Ayniqsa **2–4-sinflarda** hikoya tuzish va qayta hikoyalash uchun samarali

- Analitik va mantiqiy fikrlash rivojlanadi
- Matnni ongli o‘qish ko‘nikmalari shakllanadi
- Sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash malakasi oshadi
- Mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati kuchayadi



Birgalikda o'qish: rolli kartochkalar usuli

Kichik guruhda ishlash samarasi:



har bir o'quvchi mas'uliyatni his qiladi



muloqot ko'nikmalari rivojlanadi

Rollar:

Savol beruvchi

matn bo'yicha savollar tuzadi

Illyustrator

g'oyani rasm orqali ifodalaydi

So'z yozuvchi

murakkab so'zlarni aniqlaydi

Xulosalovchi

guruh fikrini umumlashtiradi

O'qituvchi mashqni tushuntiradi va jarayonni kuzatadi

“Aqliy hujum” metodi

Dars boshida

Matn sarlavhasi yoki rasm ko'rsatiladi: “Bu matn nima haqida?”, “Qahramon kim bo'lishi mumkin?” — tasavvur va fantaziya rivojlanadi

Matn o'qilgach

Muammoli savollar beriladi: “Qahramon nega shunday yo'l tutdi?”, “Uning o'rnida sen nima qilarding?” — mantiqiy fikrlash rivojlanadi

Muammoli vaziyatlar

“Agar voqea boshqacha tugaganida nima bo'lardi?” — divergent fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi



Muammo aniqlash Erkin fikr bildirish Doskaga yozish Umumlashtirish

Boshlang'ich sinflarda vaqt jihatidan **3–5 daqiqa** yetarli. Muntazam qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil va kreativ fikrlashi faollashadi, nutqiy faollik rivojlanadi, jamoada ishlash madaniyati shakllanadi.



“Klaster”metodi

Qo‘llanilish sohalari

Qahramon tahlili

Markazga qahramon ismi, atrofiga xususiyatlar: mehribon, jasur, mehnatkash, halol

Matn mazmunini ochish


“Do‘stlik” mavzusi uchun: yordam, ishonch, mehr, hamjihatlik

Kalit so‘zlar bilan ishlash

Tabiat haqidagi matnda: daraxt, suv, havo, qushlar - so‘z boyligini oshiradi

Qo‘llash bosqichlari

- 1 Markaziy tushunchani aniqlash
- 2 Erkin fikrlarni yig'ish
- 3 Fikrlarni guruhlash
- 4 Umumiy xulosa chiqarish




Mantiqiy tafakkur

Mantiqiy va ijodiy tafakkur rivojlanadi




Vizual tafakkur

Vizual tafakkur va eslab qolish oshadi



Tahlil ko'nikmasi


Matnni tushunish va tahlil qilish shakllanadi



Darsdagi faollik

O‘quvchilarning faolligi kuchayadi

Interaktiv metodlar asosida o‘qish darslarini tashkil etish metodikasi



Ishlash shakllari va baholash

Individual

Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi

Juftlikda

Muloqot va hamkorlikni kuchaytiradi

Guruhli

Jamoaviy va ijodiy faoliyatni shakllantiradi

O‘qituvchining roli

- Dars jarayonini boshqaruvchi
- O‘quvchilarga yo‘naltiruvchi
- Ijodiy muhitni yaratib beruvchi

Boshlang'ich sinflarda ijodiy metodlar murakkab nazariy tahlil emas, balki amaliy va obrazli faoliyat orqali amalga oshiriladi. *Vizual tasvirlash*. O'quvchilar matn asosida:

rasm chizadi

kollaj tayyorlaydi

qahramon
portretini
yaratadi




Ijodiy dars bosqichlari

- **Rasm asosida taxmin** – bolalar rasimga qarab fikr bildirmoqda.
- **Matnni ifodali o‘qish** – kitob o‘qish jarayoni.
- **Qahramonlarni tavsiflash** – muhokama qilish.
- **Juftlikda dialog tuzish** – ikki o‘quvchi suhbat qilmoqda.
- **Eng yoqqan sahnani chizish** – bolalar rasm chizmoqda.
- **Yangi yakun yozish** – hikoya ustida ishlash.



Bu ketma-ketlik o‘quvchini **passiv tinglovchidan faol ijodkorga** aylantiradi. Natijada o‘qish darsi faqat matn o‘rganish emas, balki fikrlash, his qilish va ijod qilish maydoniga aylanadi.





Ma’naviy-axloqiy mazmuni ochish (*Ijodiy tafakkur*)

O‘quvchilar maqol va hikmatli so‘zlarning mazmunini matn bilan bog‘laydilar

Topshiriq orqali:

- axloqiy tarbiya; hayotiy xulosa chiqarish; o‘z fikrini erkin ifodalash rivojlanadi.

Amaliy va ijodiy topshiriqlar

O‘quvchilar:

- hikoya asosida rasm chizadilar; matnni qismlarga bo‘lib sarlavha qo‘yadilar;
- qisqa reja tuzadilar yoki hikoyani davom ettiradilar.

Bu bosqich: ijodkorlikni; yozma nutqni; mustaqil ishlashni rivojlantiradi.

Refleksiya va baholash (*“Bugun men bildim”*)

Dars oxirida o‘quvchilar: “Bugun men nimani o‘rgandim?” savoliga javob yozadilar.

Bu: darsni umumlashtirish; hissiy munosabatni aniqlash; teskari aloqani ta‘minlaydi.

- **Bu usul orqali:** o‘quvchilarning o‘qish va tushunish ko‘nikmalari rivojlanadi;
 - nutq, tasavvur va mantiqiy fikrlash shakllanadi;
- axloqiy-tarbiyaviy kompetensiyalar mustahkamlanadi



Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

Raqamli vositalar

- Interaktiv doskalar - darslarni zamonaviy va qiziqarli qilish
- Onlayn platformalar - hamkorlik imkoniyati
- Multimedia vositalari - audio, video, rasmlar bilan to'ldirish



Animatsiya yaratish

Hikoyani animatsiya shaklida aks ettirish orqali ijodiy ifoda yaratish

Videoroliklar

Qisqa videoroliklar yaratish - hikoya mazmunini badiiy tarzda ifodalash



Amaliy tavsiyalar va xulosa

Darsni rejalashtirish

Har bir darsda kamida bitta interaktiv metod qo'llang. Maqsadni kreativ fikrlashga yo'naltiring. Yoshga mos badiiy matnlarga ustuvorlik bering.

Kirish bosqichida kreativlik

Muammoli savol yoki rasm asosida suhbat tashkil eting. "Aqliy hujum"dan foydalaning. Noto'g'ri javob yo'qligini tushuntiring.

Matn bilan ishlash

Bo'laklab o'qing va muhokama qiling. "INSERT", "Klaster", "Besh savol" metodlarini qo'llang. Qahramonlarga tavsif berishda tuzdiring.

Ijodiy topshiriqlar

Matnni davom ettirish, muqobil yakun tuzish, qahramon nomidan hikoya yozish, rasm chizib matn bilan bog'lash.

Baholash tavsiyalari

- Ijodiy **jarayonni** hisobga oling, faqat natijani emas
- Og'zaki baholash va ijobiy fikrlar orqali rag'batlantiring
- "Eng kreativ fikr" nominatsiyalaridan foydalaning
- Xatoni rivojlanish imkoniyati sifatida ko'ring

O'qituvchi uchun

- O'zingiz ham kreativ yondashuvni namuna sifatida ko'rsating
- O'quvchilar fikrini bo'lmasdan tinglang
- Erkin va qulay muhit yarating
- Har bir kichik yutug'ni e'tirof eting



Xulosa qilib aytganda, o'qish darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

